

NEMIS TILIDA SIFAT VA SIFATDOSHDNING O'ZIGA XOS UYG'UNLIGI

A.A.Jabbarov (SamDCHTI)

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tilida sifat va sifatdoshning o'ziga xos uyg'unligi, sifatning o'ziga xos xususiyatlari va sifatdosh I va II ning sifat so'z turkumiga o'xshash tomonlari haqida bahs yuritiladi.

Nemis tilida fe'lining otlik formalaridan biri sifatdoshdir. Sifatdosh otlik forma sifatida sifatga yaqin turadi. Sifatlar gap tarkibida turli funksiyalarda qo'llanadi va sifatdoshlari ham gap tarkibida aynan sifat ega bo'lgan vazifalarda kela olishlari mumkin.

Nemis tilida sifatdoshning ikki turi bo'lib, bular sifatdosh I (das Partizip I) va sifatdosh II (das Partizip II) deb yuritiladi. Sifatdosh II fe'l sistemasi bilan uzviy bog'langan bo'lib, u fe'lining uch asosiy formalaridan biri hisoblanadi. U fe'lining asosiy formasi sifatida murakkab zamon formallari (Perfekt, Plusquamperfekt, Passivning hamma zamon formallari va Infinitiv II) ning yasallishida qo'llanadi.

Nemis tilida sifatdosh I fe'l negiziga **-(e)nd** suffiksini qo'shish yo'li bilan yasaladi. Agar fe'l negizi *-el*, *-er* bilan bitgan bo'lsa, **-nd** suffiksi, qolgan hollarda esa **-end** suffiksi qo'shiladi: *sagend*, *machend*.

Sifatdosh I qaysi so'z turkumi oldida kelishiga qarab turli sintaktik vazifani bajaradi. Sifatdosh otlar oldida kelganda aniqlovchi vazifasini bajaradi: *die liebende Mutter*, *das sich nähernde Schiff*.

Sifatdosh I fe'l oldida qo'llansa, u hol vazifasini bajaradi: *...schweigend hörte sie ihm zu* (W. Bredel).

Sifatdosh I zu yuklamasi bilan bog'lanib kelganda, faqat attributiv funksiyada ishlatilib, Passivni ifoda etadi. Zu yuklamasi yordamida sifatdosh Aktivdan Passivga ko'chib, zaruriyat ma'nosini ham anglatadi. Masalan: *ein zu lesendes Buch* „o'qilishi zarur bo'lgan kitob“ degan ma'noni ifoda etadi.

Zu yuklamali sifatdosh va zu yuklamali Infinitiv ma'no jihatidan bir-biriga mos keladi, Masalan: *diese schwer zu lösende Aufgabe*, (zu + Partizip). *Diese Aufgabe ist schwer zu lösen*, (zu + Infinitiv) kabi.

Sifatdosh I sifatlar kabi daraja ma'nosini ham anglatadi. Masalan: *die schreiendsten (grellsten) Farben*. Sifatdosh I da ot va sifatlardagi kabi un- prefiksi yordami bilan inkor ma'nosi ifoda etiladi, masalan: *... unwissend, wohin sie sich werden sollte* (Kleist). *Unfühlend ist die Natur* (J. Goethe).

Sifatdosh ham sifatga o'xshash va unga xos xususiyatlarga ega bo'lishiga ko'ra, u ot kesim sostavidagi sifat o'rnida predikativ vazifasida qo'llana oladi: *Der Film ist spannend*, Aniqlovchi sifatida qo'llana oladigan hamma sifatdosh I otga ko'chgan holda qo'llana oladi: *die Pflügenden, Gebenden, Laufenden, Schwimmenden Ankommenden, Betreffenden*.

Sifatdosh I ning qo'llanilishida mavjud bo'lgan holatlar o'zbek tilida quyidagicha ifoda etiladi:

✓ Nemis tilida sifatdosh I ning ot oldida aniqlovchi vazifasini bajarib kelishi o'zbek tilida hozirgi zamon sifatdoshi yordamida ifoda etiladi, qiyoslang: *der lesende Student* – o'qiyotgan talaba; *der schreibende Student* – yozayotgan talaba;

✓ Sifatdosh I ning fe'llar oldida kelib, hol vazifasini bajarishi o'zbek tilida **-(i)b** affiksi yordamida yasalladigan ravishdosh bilan ifoda etiladi, qiyoslang: *Stehend* (turib) *rauchte er eine Zigarette*; *Lachend* (kulib) *trat er ins Zimmer ein*;

✓ Sifatdosh I zu yuklamasi bilan qo'llanganda Passiv ma'nosni ifodalab, o'zbek tilida egalik qo'shimchasini olgan harakat nomi orqali ifoda etiladi, qiyoslang: eine schwer lösende Aufgabe – Hal qilinishi og'ir (qiyin) bo'lgan masala; der zu lesende Artikel – o'qilishi zarur bo'lgan maqola;

✓ Sifatdosh I ning ba'zan sifatlar kabi, darajani ifoda etishi o'zbek tilida sifat darajalari yordamida ifoda etiladi, qiyoslang: Sie ist das reizendste Mädchen. – U juda chiroyli (kelishgan) qiz. Er hat jetzt noch hochfliegendere Pläne als früher – Uni endi ilgarigiga qaraganda balandparvoztroq rejalari bor.

✓ Nemis tilidagi otlashgan sifatdosh I o'zbek tilida -uvchi affiksi yordamida yasaluvchi otlashgan sifatdoshlar bilan ifoda etiladi, qiyoslang: die Laufenden – chopuvchilar, die Schwimmenden – suzuvchilar, die Ankommenden – keluvchilar.

Ma'lumki, nemis tilida fe'llar o'zlarining negiz unlilarini o'zgartishi (ablaut) yoki o'zgartmasligiga ko'ra kuchli va kuchsiz fe'llarga bo'linadi. Sifatdosh II ning qanday tuzilishi ham uning qaysi fe'ldan (kuchli yoki kuchsiz) yasallishiga bog'liq.

Sifatdosh II o'timli fe'llardan yasalgan bo'lsa, odatda u aniqlovchi vazifasini bajaradi. Ammo sifatdosh II ish-harakatning tugagan ma'nosini ifoda eta oladigan o'timsiz fe'llardan yasalganda, aniqlovchi vazifasini bajara oladi. Masalan, nemis tilida: “die geschlafenen Kinder” yoki “die gegangenen Menschen”, deb bo'lmaydi, aksincha, “die eingeschlafenen Kinder” (uxlagan bolalar) va “die fortgegangenen Menschen (ketgan odamlar)” deyish to'g'ri bo'ladi, chunki einschlafen va fortgehen fe'llari o'z ma'nolariga ko'ra ish-harakatning to'la tugallanganligini ifoda eta oladi, lekin schlafen va gehen fe'llari bunday ma'noga ega emas.

O'timli fe'llardan yasalgan sifatdosh II odatda tugallangan ish-harakatni ifoda etsa ham, u ba'zan bu ma'noni anglatmasligi mumkin. Er gehört zu den am meisten gelesenen Schriftstellern – U asarlari hammadan ko'p o'qilayotgan yozuvchilardan biri hisoblanadi.

Das Land ist befreit (sein + sifatdosh II).

Das Land ist frei (sein + sifat).

Birinchi va ikkinchi gapdagi kesimning ma'no jihatdan farqi shundaki, sostavida sifatdosh II bo'lgan birinchi gapning ot kesimi holatni anglatadi, ya'ni ilgari bo'lib o'tgan ish-harakatning natijasini ko'rsatadi (qiyoslang: Das Land ist befreit – Mamlakat ozod qilindi), ikkinchi gapning sostavidagi predikativ vazifasida kelgan sifat ot kesimining ma'no jihatdan ish-harakatiga hech qanday munosabati yo'qligini ko'rsatadi (qiyoslang: Das Land ist frei – Mamlakat ozod).

Sifatdosh II ning yoyiq aniqlovchi sostavida qo'llanishi nemis tili uchun juda xarakterlidir, Masalan: die vor einer Woche gekauften Bücher – (bir hafta ilgari sotib olingan kitoblar).

Skifatdosh II ning ot oldida kelib, sifatdosh I kabi aniqlovchi vazifasini bajarib kelishi o'zbek tilida ham aniqlovchi vazifasini bajarib keladigan o'tgan zamon sifatdoshi bilan ifoda etiladi, qiyoslang:

Sein Gesicht hatte einen düsteren und verschlossenen Ausdruck angenommen. – Uning chehrasi g'amgin va sir tutgan qiyofani anglatadi. Der Konsul hob mit einem zerstreuten Lächeln sein Glas. – Konsul parishon bo'lgan holda iljayish bilan o'z stakanini ko'tardi.

Sifatdosh II sein fe'li bilan bog'lanib, holat ma'nosini anglatuvchi maxsus konstruksiya yasaydi. Bu konstruksiya o'zbek tilida ravish yoki sifatdosh yordamida ifoda etiladi: Die Tür ist geöffnet. – Eshik ochiq.

Sifatdosh II yoyiq aniqlovchi sostavida ham qo'llanib, bu ma'no o'zbek tilida sifatdosh yordamida ifoda etiladi: der von mir übersetzte Text – Men tarjima qilgan matn; der von ihm geschriebene Brief – U yozgan xat.

O'zbek tilida ham sifatdosh, nemis tilidagidek, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi kabi vazifalarda keladi. O'zbek tilida sifatdosh ega, to'ldiruvchi va hol vazifalarida kelganda, nemis tiliga yot bo'lgan egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi, masalan: Ega bo'lib: Aytganim rost. Ketgani to'g'ri. To'ldiruvchi bo'lib: Uni Moskvadan kelganini eshitdim. Hol bo'lib: Mening bormaganimdan u xafa.

Lekin sifatdosh aniqlovchi va kesim vazifalarida kelganda, nemis tilidagidek, egalik va kelishik qo'shimchalarisiz qo'llanishi ham mumkin, masalan: Aniqlovchi bo'lib: kulgan qiz, ochilgan gul, oqqan suv.

Lekin sifatdosh I va II ning ba'zi holatlari o'zbek tiln sifatdoshidan farq qiladi: nemis tilida sifatdosh ikki zamon aspektida qo'llansa, o'zbek tilida uch zamon aspektida ishlatiladi. Nemis tilida ravish holi ma'nosida kelgan sifatdosh o'zbek tilida sintaktik jihatdan mos kelsada, morfologik jihatdan farq qiladi – nemis tilidagi sifatdosh o'zbek tiliga ravishdosh formasi orqali ifoda etiladi.

Sifatlar gap tarkibida turli funksiyalarda qo'llanadi va sifatdoshlar ham gap tarkibida aynan sifat ega bo'lgan vazifalarda kela olishlari mumkin. Bu haqdagi olimlarning fikr – mulohazalari berilgan misollar va misollar tahlili yordamida boyitib borilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov M.B. Features of the organization of an integrated introductory phonetic course of german as a second foreign language in a non-linguistic higher educational institutions // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 7. – C. 265-268.
2. *Dreher Schmitt.* Lehr- und Übungsbuch der deutschen Grammatik. Deutschland, 2009.
3. Duden-Grammatik. 5. völlig neu bearb. u. erw. Auflage. Hrsg. u. bearb. v.G.
4. *Bußmann H.* Lexikon der Sprachwissenschaft. – Stuttgart, 1990.
5. *Eichler W., Bünting K.-D.* Deutsche Grammatik. Form, Leistung und Gebrauch.